

**„SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDAGI TARIXIY SHAXSLAR VA JUG‘ROFIY
NOMLAR****Odamboyeva Mohichehra San‘atbek qizi,***Abu Rayhon Beruniy nomidagi**Urganch davlat universiteti**Filologiya fakulteti 3-kurs talabasi*

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada Alisher Navoiy ijodining muhim qismi bo‘lgan “Xamsa” turkumiga mansub, uning so‘nggi dostoni — “Saddi Iskandariy”da talmeh san‘ati tahliliga bag‘ishlanadi. Falsafiy-ijtimoiy masalalarni yoritishda va badiiy g‘oyalarni chuqurlashtirishda shoir tarixiy va diniy shaxslar hamda muhim voqealarga mahorat bilan murojaat etgan. Bulardan so‘ng ko‘rishimiz mumkin bo‘lgan yana bir narsa-bu adibning falakiyot ilmidan ham voqif ekanligidir va asar davomida turli koinot jismlarining tilga olinishi so‘zimizning yaqqol dalili bo‘la oladi. Jumladan, bu talmehlar vositasida Alisher Navoiy o‘zining hayotiy qarashlari, ichki kechinmalari va ijodiy pozitsiyasini yanada aniqroq va teran ifodalagan. Maqola davomida ushbu talmehlardan ayrimlari ilmiy tahlil asosida yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: Navoiy lirikasi, lirik qahramon, falsafa, din ilmi, koinot ilmi, dunyoviy ilm, tarix.

Аннотация. В данной научной статье рассматривается анализ художественного приёма талмеха в последней поэме «Садди Искандари», входящей в цикл «Хамса» Алишера Навои, являющейся важной частью его творчества. При освещении философско-социальных вопросов и углублении художественных идей поэт мастерски обращается к историческим и религиозным личностям, а также к важным событиям. Кроме этого, можно увидеть, что автор также был осведомлён в области астрономии, о чём свидетельствуют упоминания различных небесных тел в произведении. В частности, посредством этих талмехов Алишер Навои более точно и глубоко выражает свои жизненные взгляды, внутренние переживания и творческую позицию. В статье некоторые из этих талмехов освещаются на основе научного анализа.

Ключевые слова: лирика Навои, лирический герой, философия, религиозные знания, астрономия, светские науки, история.

Annotation. This scientific article is devoted to the analysis of the artistic device of allusion (talmeh) in “Saddi Iskandari,” the final poem of Alisher Navoi’s “Khamasa,” which is an important part of his творчество. In illuminating philosophical and social issues and deepening artistic ideas, the poet skillfully refers to historical and religious figures as well as important events. It can also be observed that the author was knowledgeable in astronomy, which is evidenced by the mention of various celestial bodies throughout the work. In particular, through these allusions, Alisher Navoi expresses his life views, inner experiences, and creative position more clearly and deeply. The article highlights some of these allusions based on scientific analysis.

Keywords: Navoi’s lyrics, lyrical hero, philosophy, religious knowledge, astronomy, secular sciences, history.

Kirish. Alisher Navoiy asarlarini o‘rganish, tahlil qilish oson ish emas. Buning uchun bitta asarga bir necha marta murojaat qilish, har bir bayt ustida erinmay ishlashni taqozo etadi. Birgina “Saddi Iskandariy” dostonining mazmun-mohiyatini to‘liq anglab yetish uchun butun bir tarix zarvaraqlarini ochib chiqishga to‘g‘ri keladi. Asar syujeti davomida Navoiy bot-bot tarixiy shaxslarga va jug‘rofiy nomlarga murojaat qilgan. Asar g‘oyasini ochib berish uchun har biridan unumli va o‘rinli foydalangan. Doston boblarini ketma-ketlikda tahlil etar ekanmiz, 126 tarixiy va afsonaviy shaxs nomi qayd etilganining guvohi bo‘lamiz. Bundan tashqari, 97ta o‘rin-joy nomlari, ya‘ni geografik atamalarga duch

kelamiz. Osmon jismlari- sayyoralar nomlarini keltirish orqali ham go'zal san'at namunalari yuzaga kelgan. Bir so'z bilan aytganda, Navoiy dunyo xaritasini qalb ko'zi bilan ko'ra bilgan, mushohada qila olgan donishmand olim sifatida ham namoyon bo'ladi. Navoiy qahramonlari dunyo yaralgandan buyon ma'lum va mashhur bo'lgan buyuk shaxslarga, taniqli olim-u faylasuflarga qaysidir rishta bilan ishonarli tarzda bog'lanadi, ulardan saboq oladi va ularga qo'l beradi. Navoi o'z qahramonlari jismiga yetti olamga ustozlik qila oladigan daholarni ruhini joylaydi va o'z ideallarini kashf etadi. O'quvchi nafaqat Iskandar voqeasini, balki butun bir tarixni o'qib chiqadi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ko'plab olimlar bilan shu asar tabdili davomida tanishadi va ular haqidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili. Navoiy ijodida munosib o'rin olgan talmeh san'ati o'ziga xosligi bilan juda ko'p olim-u tatqiqotchilarning ilmiy izlanishlariga mavzu bo'lib kelgan. Bundan tashqari janrlar mohiyatini ochib berishda ham o'z-o'zidan bu san'at haqida gap borishi tabiiy hol. Bugungi davrda ham bu mavzu yosh tatqiqotchilarning ilmiy izlanishlariga turtki bo'lmoqda, qator maqolalar, ilmiy dissertatsiyalar shu mavzu asosida olib borilmoqda. Jumladan, Avaznazarov Odiljonning „Alisher Navoiy ijodida Soqiy obrazi“ PHD dissertatsiyasi, O.Hakimovaning „Navoiy ijodida talmeh san'atining qo'llanilishi“ va N.Abdumannatovaning „Navoiy she'riyatida talmeh san'atining qo'llanilishi“ kabi magistrlik ilmiy ishlari shular qatoridadir. Filologiya fanlari doktori U.Qobilovning „Alisher Navoiy „Badoyi' ul-bidoya“ devonida nubuvvat masalasi va Masih obrazi talqini“ ilmiy maqolasi ham shu mavzu asosida vujudga kelgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani yozish jarayonida tarixiy-qiyosiy, tarixiy-biografik, psixologik, sotsiologik, statistik metodlardan unumli foydalanildi.

Tahlillar va natijalar. Dostonda bir qancha olimlar obrazi mavjud. Bular: Naqomish, Arastu, Filotun – Aflotun, Suqrot, Asqalinus, Buqrot, Hurmus, Fayog'urs kabilardir. Ularning ko'plari juda qadim zamonlardan boshlab Yaqin va O'rta Sharq xalqlari orasida u olimlar tomonidan yaratilgan asarlarning ko'pchilik qismi arab tiliga tarjima qilinganligi tufayli keng tarqalgan hamda shu joylarda yashaydigan olimlar tomonidan ularga sharhlar yozilgan. Alisher Navoiy „Saddi Iskandariy“ dostonida ularning nomini bir necha marta qo'llagan. Bu esa adibning ushbu afsona, rivoyat, asarlar bilan tanish bo'lganligidan dalolat beradi. Biroq Navoiy «Saddi Iskandariy»da olimlarning tarixiy obrazlarini yaratish yoki ularning ilmiy ishlarini bayon etish, ijtimoiy-falsafiy qarashlarini talqin etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan emas. U an'analarga amal qilgan holda, yunon olimlarining nomlarini keltirgan. Bundan maqsad esa, ular obrazi orqali o'z davridagi ijtimoiy-siyosiy, falsafiy qarashlarni yoritish edi. Shuning uchun ham Navoiy olimlarni antik dunyodan o'z zamoniga olib kirgan. Shoir ular orqali ilm-ma'rifatni targ'ib qiladi hamda o'z davridagi olimlarni el-yurt uchun foydali ishlar bilan shug'ullanishga undaydi. Bundan tashqari, Navoiy o'z davri hukmdorlarini ilm-fan

ahllariga homiylik qilishlarini, ularning oqilona maslahatlarini tinglab, davlatni idora qilishni uqtiradi, o‘zi ham bu borada o‘rnak bo‘ladi:

Tugatgach Filotuni dono payom,
Ayon qildi Suqrot mundoq kalom. [1.494]

Tugandi chu Suqrotning hikmati,
Yetishti Balinosning navbati. [1.494]

Chu Buqrot harfig‘a itmon edi,
Duo birla donanda Xurmus dedi. [1.496]

Chu Farfunyus etti irshodini,
Arastu qilib nukta bunyodini.[1.497]

Asarda bunday baytlar juda ham ko‘p, asar syujetiga, uning mavzu ko‘lamini ochib berishfga to‘laqonli xizmat qilgan.

Asarda payg‘ambarlar, avliyolar va farishtalar nomlari ham tez-tez tilga olinadi. Bu esa Navoiyning diniy aqidalarni yaxshi bilganligidan, “Qur‘oni Karim”ni mukammal o‘zlashtirganligidan dalolat beradi. Kelajakni oldindan ko‘ra bilgan avliyo sifatida ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi. Boshqa bir tarafdin olib qaraganda: “Sharq-islom mumtoz she‘riyatida payg‘ambar siymolar, tarixiy-afsonaviy shohlar, epik qahramonlar badiiy obrazlariga ko‘p bora murojaat etiladi. Bu an‘ana Sharq she‘riyatining mumtozlik darajasini ta‘min etgan o‘ziga xos qonuniyat hamdir. Ayniqsa, mumtoz she‘riyat poetik olamida muqaddas manbalarda tarixi va nomlari zikr etilgan payg‘ambar siymolar obrazlari katta o‘rinni egallaydi”. [7.31-32]

Navoiy payg‘ambarlar hayotini yetarli darajada o‘rgangan, bilgan. Diniy istilohlarni mazmun-mohiyatini aniq izohlab bergan. Asar davomida ko‘plab payg‘ambarlar hayot tarzi, xulq-atvori, go‘zal sifatlari adib qahramonlari “men”ini ochib berishda katta xizmat ko‘rsatgan. “Qur‘oni Karim”da ismi 25 marta uchragan Iso (a.s.) timsoliga asar davomida bir necha marta duch kelamiz. Masih, Masiho, Ruhulloh tarzida misralarda nomi qayd qilingan bu payg‘ambar nasroniylik dinining asoschisi, “Injil” kitobi unga nozil bo‘lgan:

Chun Isog‘a “Injil” nozil bo‘lub,
Haq anda sifotingg‘a qoyil bo‘lub.[1.19]

Asarda Iso Masih (a.s.) ko‘lab g‘oyaviy-badiiy vazifalarni bajarishga xizmat qiladigan obraz sifatida namoyon bo‘lgan. U poklik, go‘zallik, qanoat, tajrid, tafrid va hoziq tabib timsoli. Mashuq axloqi, husni-chiroyi, a‘zolari ta‘rif-tavsif etilganda Iso Masihga qiyoslanadi, ba‘zan undan ustun ham qo‘yiladi. Dostonda “Masihovash” atamasi “Masih ilgi” hamda “Masihi dami” tariflari bilan birga ketma-ket qo‘llangan. Masihovash yor dami bilan tirilib Masih ilgidan hayot suvini ichgan oshiq Masihi damidan obi hayvon hamda jon topadi:

Masihovash alqissa yuz dam tuzib,
Kecha andoq o‘lturganin turguzub.[1.207]
Chu oshiqqa ul ruh etib iltifot,

Masih ilgidin topib obi hayot.[1.208]

Arsh-ayvon, osmon, taxt, to‘qqizinchi ko‘kdadir. U butun olamlarni bag‘riga olgan munavvar bir borliq. Navoiy o‘z asarlarida “Arshi muallo”, “Arsi Rahmon”, “Arshi Yazdon”, “Falaki A‘zam” tarzida tilga olgan bu istiloh qalbga qiyoslangan. Qalb o‘zining sir-sinoati, azamati va fayzi bilan ba‘zan Arshdan ham yuksak maqomga qo‘yiladi:

Nekim charx-u anjum sanga jilvagoh,

Ki, jilvang chog‘i Arsh o‘lub xoki roh.[1.22]

Alloh bilan payg‘ambarlar o‘rtasida vositachi bo‘lib, vahiy keltirgan muqarrab farishta Jabroil(a.s.) nomi ham asar davomida bir necha marta zikr etilgan.

Magar bo‘ldi Ruh ul- qudus hamrahi,

Va yo keldi anfosi Ruhullahi.[1.39]

“Ehtimol, uning hamrohi Jabroil (Ruh ul-qudus) bo‘lgandir yohud bu kelgan Iso (Ruhullah) payg‘ambarning nafasidurkim, o‘liklarni tiriltiradi”.

Navoiy qahramonlari qatorida afsonaviy va tarixiy podshohlar nomi ham talaygina. Ular adibga zamondosh bo‘lgan taxt uchun kurash maydonida adolat neligini unutkan, mol-u davlat uchun o‘z jigarlari qoniga bulg‘angan taxt egalariga o‘rnak vazifasini o‘tash uchun asar voqealariga aralashadi. Ba‘zan ochiqdan ochiq nasihat qilsa, ba‘zida amaliy ish bilan g‘oyibona ergashtiradi. Kayumars (qadimgi Eronning podshohlaridan biri), Hushang (Ajam podshohlaridan), Tahmuras (Peshdodiy shohlaridan), Jamshid (Eron podshohlaridan), Manuchehr(Eron podshohlaridan), Afrosiyob (Peshdodoiylar podshohi), Kayqubod (Kayoniylar podshohi)...

Asarda bunday tarixiy va afsonaviy podshohlar nomi son-sanoqsiz, ammo ularning vazifasi turli xil:

Alar peshvosi Kayumarsi rod

Kim, ul qo‘ydi taxt uzra oyini dod.[1.69]

Yana dahr dorosi Zahhoke di,

Ki, el qoni to‘kmakta bebok edi.[1.70]

Yana topti Navdar jahondin navo,

Jahon mulkiga bo‘ldi farmonravo.[1.70]

Bulardin burung‘ini bil Kayqubod

Ki, erdi xiradmand-u odilnihod.[1.71]

“Jamshid obrazi VIII-IX asrlarda yaratilgan Abu Hanifa Diynavariyning asarlarida musulmonlashtirib talqin etiladi. Birinchi bo‘lib Diynavariy Jamshidni Nuh payg‘ambarning avlodi sifatida tilga oladi” [5.71].

Yuqorida ta‘kidlab o‘tganimizdek, dostonida juda ham ko‘p geografik atamalar borki, bu adibning qiziquvchanligidan, sinchkovligidan va o‘tkir mushohada egasi ekanligidan dalolat beradi. Asar davomida o‘quvchi ko‘z oldida olamni kezib chiqqan, brogan joylarini, ko‘rgan manzilgohlarin nomma-nom aytib bera oladigan buyuk sayyoh

gavdalanadi. Madomiki, bularning ko'pchiligini bugungi taraqqiy qilgan davrda yashayotganlar, ya'ni biz ham bilmaymiz. Go'yo Navoiy Iskandar bilan dunyoni kezib chiqqan. Nigor – Dehli yaqinidagi o'rmon, Sind- Hindistondagi daryolardan biri, Adan-Arabiston yarim orolidago yirik shaharlardan bir, Damashq- Suriyadagi bir shahar nomi, Gurja- Guruziya, Ummon- Arabiston dengizi, Qulzum- Qizil dengiz, Yaksarsh- Osiyodagi dengiz, Charkas- Cherkaslar o'lkasi... Ko'ribsizki, bu keltirilgan joy nomlari, suv havzalari nomlari dunyoning turli burchaklarida joylashgan geografik manzilgohlarga tegishli. Bu esa Navoiyning jug'rofiy olim sifatida o'quvchiga tanishtiradi:

Munga yetgucha borcha Eron zamin

Bo'lup erdi hukmig'a zeri nigin.[1.216]

Xususan Ko'hak rudikim, nahri Nil

Emas oncha, ne Nilkim, Salsabil.[1.220]

Ani ahli Kashmir darband etib,

Iki tog'ni bir-birga payvand etib.[1.221]

Falakiyot ilmidan xabardor bo'lgan Navoiy "Saddi Iskandariy" mazmun chizig'iga osmon jismlari nomlarini ham qadab o'tgan. Oy va Quyosh- adib uchun qulay tashbeh, doimiy yordamchi. Doston misralarida boshqa sayyoralar nomlari ham tez-tez uchraydi. Bahrom- Mirrix (Mars) sayyorasi, Mushtariy- Yupiter sayyorasi (munajjimlar uni "Falak qozisi" deb ham ataydilar), Zuhul- Saturn sayyorasi, Atorid- Merkuriy sayyorasi (adiblar uni o'zlariga homiy deb bilgan), Zuhra- Cho'lpon yulduzi (osmon sozandasi-Venera) nomlari asarda ketma-ket keltirilgan:

Uchunchi sori chun shitob aylabon,

Falak Zuhrag'a ehtisob aylabon. [1.24]

Beshinchiga chun yetkurub gomni,

Qilib bandai amri Bahromni.[1.24]

Chu oltinchig'a yetkurub rahbari,

O'qub xutbai davlatin Mushtariy.[1.25]

Yetinchiga chun obir aylab samand,

Saodatdin o'lub Zuhul bahramand.[1.25]

Xulosa. Yuqoridagilarga tayanib shuni aytish mumkinki, Navoiy diniy bilimlar va dunyoviy bilimlarni puxta o'zlashtirgan buyuk olim, tengsiz donishmand, ko'p qirrali faylasufdir. Adib bu mahoratini o'z asarlari mazmun-mohiyatini yoritishda to'laqonli qo'llagan. O'z o'quvchisiga nafaqat ijodkor, balki qomusiy olim sifatida o'zini tanishtirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. -Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2012.
2. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. -Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
3. Alisher Navoiy. Qomusiy lug'at. -T.: "Sharq", 2016.

4. Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. -Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2012.
5. Jabborova M. Jamshid obrazining genezisiga doir// Oltin bitiklar. 2019. № 2. –B. 71-85.
6. „Saddi Iskandariy“ning sharh va izohlari. - Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2012.
7. Usmon Qobilov. Alisher Navoiy “Badoyi’ ul-bidoya” devonida nubuvvat masalasi va Masih obrazi talqini. Alisher Navoiy xalqaro jurnali №2, 2023.

